
**GRAFIK ORGANAYZERLAR VOSITASIDA
CHET TILLARINI O'QITISH****D.O'Utanazarova ¹***¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi
Samarqand akademik liseyi yetakchi o'qituvchisi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 07.01.2025**Revised: 08.01.2025**Accepted: 09.01.2025**Til o'rganish va o'rgatish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin.***KALIT SO'ZLAR:***Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi.*

KIRISH. Til o'rganish va o'rgatish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. "Bugungi mavzuga ko'pdan beri tayyorgarlik ko'rganmiz. Parlamentga murojaatimizda ham fizika va chet tillarini o'rganishni kuchaytirish bo'yicha alohida to'xtalgandik. Shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda raqobatga tayyor bo'lishimiz kerak. Uchinchi renessans poydevorini mustahkam qilish uchun ham chet tillarini o'rganishni kuchaytirishimiz kerak. Qanday og'ir bo'lmasin, bu masala e'tiborda bo'lishi, urg'uni alohida berishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar²⁷, – deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik ta'lim tizimiga asoslangan bo'lib, unda olg'a surilayotgan g'oyalar shaxsning ma'naviy, huquqiy

²⁷ Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida chet tillarini o'rganishning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan 06.05.2021 sanadagi videoselektor yig'ilishidagi nutqidan

madaniyatini insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida qurish, ta'lim tizimini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishish, jamiyatga har tomonlama yetuk kadr tayyorlash ishiga qaratilgandir. Ana shu vazifalarni ijobiy hal etish natijasida aqlan yetuk, axloqan barkamol, jismonan sog'lom, dunyoqarashi keng va teran, yaxlit shakllangan, ya'ni komil inson shakllanadi.

Ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan o'quv jarayoni ta'lim oluvchilarni shaxs sifatida shakllanishi, intellektual, axloqiy jihatdan rivojlanishlari uchun qulay sharoitlarni keltirib chiqaradi. Mavzuni yoritib berishda o'qituvchi qo'yidagi shartlarga muvofiq harakat qilishi ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarni o'zlashtirishi, amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun zarur sharoit yaratadi. Chunonchi, mavzuni mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarga yetkazishda aniq maqsadni belgilash, didaktik shartlar (ta'lim shakli, metod va vositalarining maqbul variantini tanlay olishi, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik va uyg'unlikni ta'minlanishiga erishish, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan vaqt hajmini aniq belgilash), ta'lim oluvchilarga mavzuni faqat nazariy jihatdan ifodalash bilan cheklanib qolmasdan ma'naviyaxloqiy sifatlarini tarkib topishini, shaxs sifatida rivojlanishlarini, guruhda ijodiy, ishchanlik kayfiyatini yarata olish kabi xususiyatlarni shakllantirish lozim.

Ta'lim oluvchilar esa o'z navbatida mavzuning mohiyatini anglab yetishi, nazariy bilimlar va ularga muvofiq amaliy ko'nikma hamda malakalarni o'zlashtirishga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqishning qaror toptirilishi, mavzuni o'zlashtirgani holda o'zida amaliy faoliyatda qo'llay olishi, mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli bajarishi, olgan nazariy bilimlarini mustaqil faoliyat olib borish orqali mustahkamlashi lozim.

Hozirgi kompyuter texnologiyalar asrida ta'limning reproduktiv metod va vositalari jamiyatga shiddat bilan kirib kelayotgan axborot oqimini to'liq o'zlashtira olmayapti. Shu bois, ta'limni jadallashtirish, taraqqiy ettirish va samaradorligini oshirish uchun an'anaviy ta'limga har tomonlama yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya hozirgi kun pedagogikasining shartlari, barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir va dastur hisoblanadi.

Mavzuni yoritishda o'qituvchidan pedagogik, didaktik bilimlarni chuqur o'rganish, yuzaga kelayotgan vaziyatlar mohiyatni tezkor sur'atda baholay olish, ularning yechimini topish layoqati, ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatini nazorat qilish va haqqoniy baholay olish malakasiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Mavzuni o‘qitishda innovasion texnologiyalar qo‘llanishi ta‘lim oluvchilarni tizimli ijodiy fikrlashini va ijodiy masalalarni yechishda nostandart g‘oya, fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan texnologiyalardir. Ta‘lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan, chet tilini o‘qitishda ham grafik organayzerlar qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Organayzerlar ta‘lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etuvchi sxema, diagramma, grafik, jadvallardan foydalanishdan iborat.

Chet tilini o‘qitishda tahlil qilishga o‘rgatuvchi “VENN” diagrammasi, “T” sxemasi; tushuncha bilan ishlaydigan “Klaster”, “Sinkveyn”; matn bilan ishlaydigan “BBB”, “Insert” fikrlashga o‘rgatuvchi “AVV”, “PMI” kabi organayzerlardan foydalanib ta‘limni tashkil qilish ta‘lim oluvchilarga chet tilini o‘rganish uchun qulaylik yaratadi.

Tushuncha bilan ishlaydigan organayzerlarni qo‘llashni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Misol tariqasida “Sinkveyn” usulini ko‘rib chiqamiz. “Sinkveyn” – beshlik ma‘nosini bildirib, u ta‘lim oluvchilarning so‘z boyligini tekshirishda qulay metod hisoblanadi. Asosiy tushuncha sifatida kitob - a book so‘zini olaylik.

1. Tushuncha (ot) – a book
2. Sifat – interesting, beautiful
3. Fe‘l – reading, writing, present
4. Munosabat (fikir) – book is our friend
5. Sinonim – a teacher

Mazkur usulni qo‘llash jarayonida ta‘lim oluvchilar xotirasini ishga solgan holda berilgan asosiy tushunchaga sifat, fe‘l, munosabat va sinonim so‘zni topishga harakat qiladilar. Bu esa ta‘lim oluvchilarning fikrlash jarayoni, shuningdek lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

“Klaster” tarmoqlash usuli bo‘lib, u ta‘lim oluvchilarni biror bir mavzuni chuqur o‘rganishiga yordam beradi, shuningdek ta‘lim oluvchilarning mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin, ochiq, uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi. Mazkur usul mavzuni o‘rganishdan ta‘lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumiy lashtirish, ta‘lim oluvchilarni tasavvurlarini sxema shaklida bayon qilishga o‘rgatadi. Chet tilini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanish ta‘lim oluvchilarning xotirasi, tafakkuri, idroki hamda diqqatini yanada rivojlantiradi, lug‘at boyligini oshiradi, bilim va dunyoqarashini kengaytiradi.

Grafik organayzerlarni qo‘llagan holda, o‘qituvchilar ta‘lim oluvchilarga chet tilida bilimdon va samarali kommunikator bo‘lishlari uchun yordam beradi. Natijada, qiziqarli va

interaktiv ta'lim orqali ta'lim oluvchilar chet tillarini mukammal o'rganish bilan birga samarali muloqot qilish uchun til ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida chet tillarini o'rganishning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan 06.05.2021 sanadagi videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.

2. Azimov Y., Babaeva S. Use of innovative technologies in lessons of writing in primary classes// Bridge to science: research works.- 2019.-C. 214-218.

3. Sayidaxmyedov N. Yangi pyedagogik tyexnologiyalar. T., "Moliya", 2003. 171 b.

4. Xatamova Q., Mirzayeva M.N. Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar (uslubiy qo'llanma), - Navoiy, 2006, 40 bet

